



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 9-yanvar, № 5 (8628)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli prokuratura xodimlari!

Muhtaram faxriylar!

Avvalo, siz, aziz qonun posbonlarini **8-yanvar — O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni** bilan chin qalbindan samimiy muborakbod etaman.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirayotgan barcha islohotlarimizda qonun ustuvorligini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Qonun hukmron bo'lgan jamiyatda albatta adolat, siyosiy-ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va yuksalish bo'ladi, inson qadri, huquq va manfaatlari ta'minlanadi.

Bunday muhim maqsadlarga erishishda prokuratura organlari va ushbu tizimda xizmat qilayotgan, o'z kasbi va burchiga sodiq, vatanparvar insonlarning roli katta ekanini bugun alohida ta'kidlashimiz o'rinlidir.

Qadrlı do'stlar!

Sizlarga ma'lumki, so'nggi yillarda prokuratura sohasini tubdan isloh etish, bu borada ochiqlik va adolatga asoslangan, fuqarolar va jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan, xalqparvar qarorlar qabul qilish, o'z nazariy va amaliy maktabiga, fidoyi va professional xodimlar korpusiga ega bo'lgan tizimni shakllantirish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

El-yurtimizning Konstitutsiyamizda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda, qonuniyligni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishda prokuratura organlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ayniqsa, xalq bilan ochiq muloqot qilish, aholi muammolarini chuqur o'rganish va hal

etish, inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilish soha xodimlarining eng asosiy va kundalik vazifasiga aylandi.

Prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borish faoliyati tubdan o'zgartirildi. Ilgari qonun buzilishi holatlarini aniqlash va jazolashga asosiy o'rin berilgan bo'lsa, endi asosiy e'tibor bunday holatlarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilmoqda.

Eng muhimi, prokuratura tizimi ham, odamlarimizning unga nisbatan munosabati ham o'zgarmoqda. Bugungi kunda el-yurtimiz prokuratura timsolida "jazolovchi idora"ni emas, balki aholi va tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini tiklashga ko'maklashadigan, ularning dardiga sherik, madadkor bo'lishga harakat qiladigan xalqparvar tuzilmani ko'rmoqda.

Buni keyingi yetti yilda prokuratura organlari tomonidan 2 millonga yaqin murojaat ijobiy hal etilib, 300 mingdan ortiq fuqaroning buzilgan huquqlari tiklangani, 148 mingga yaqin tadbirkorning muammolariga yechim topilgani ham tasdiqlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish, shuningdek, tergov hamda huquqni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Bosh prokuratura akademiyasi negizida O'zbekiston Respublikasi **Huquqni muhofaza qilish akademiyasi** tashkil etildi.

Bugungi kunda **tadbirkorlik va investitsiya, qurilish yo'nalishlarida, yer resurslaridan foydalanishda qonun buzilishining oldini olish, xotin-qizlar va yoshlar huquqlarini ta'minlash hamda ularni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish, yoqilg'i-energetika va ekologiya,**

madaniy meros va sport sohalarida qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan samarali prokuror nazorati tizimi yo'lga qo'yildi va o'z ijobiy natijalarini bermoqda.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan o'tgan davrda 53 mingdan ziyod huquqbuzarlik va jinoyatga chek qo'yildi, davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan 4,7 trillion so'm zarar undirildi, 15 mingdan ortiq shaxsning faoliyatiga qonuniy tus berilib, ularning tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishi ta'minlandi.

Prokuratura huzurida Majburiy ijro byurosining tashkil etilishi ijro ishini yuritish bo'yicha mavjud tartibsizliklarga barham berib, qat'i'iy intizom o'rnatishga imkon yaratdi. Birgina o'tgan yil davomida 36 trillion so'mlik sud hujjatlarining ijrosi ta'minlandi.

Hurmatli soha xodimlari!

Mamlakatimizda **"Qonun — ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar"** degan ezigu tamoyil asosida qonuniyligni ta'minlash borasidagi ishlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda har bir prokuratura xodimi bir haqiqatni chuqur anglab yetishi zarur. Qachon odamlarimiz hayotida xotirjamlik, ro'zg'orida farovonlik va halovat bo'ladi, qachon ularda ertangi kunga ishonch ortadi? Qachonki, yurtimizda qonunlar qog'ozda emas, balki amalda qat'i'y bajarilgan, islohotlar har bir xonadon, har bir mahallaga kirib, yurtdoshlarimiz ularning amaliy samarasini o'z kundalik hayotida his etgan taqdirda bu maqsadga to'la erishish mumkin.

Xalqimizning og'irini yengil qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, kambag'allikka qarshi kurashishga qaratilgan dasturlarimiz ijrosini

izchil tashkil etish, atrof-muhit, tabiiy boyliklar va madaniy merosimizni ko'z qorachig'idek asrash, tibbiyot, ta'lim kabi sohalardagi islohotlarimizni davom ettirish va bu borada qonun buzilishiga murosasiz bo'lish — prokuratura xodimlarining konstitutsiyaviy burchi va eng asosiy vazifasidir. Buni hech kim unutmazligi kerak. Aminmanki, yurtimizda **korruptsiya illatiga qarshi kurashish jarayoni umumxalq harakatiga aylanayotgan bugungi kunda prokuratura xodimlari alohida jonbozlik ko'rsatib, o'z tashabbuslari bilan barchaga namuna bo'ladilar.**

Ana shu maqsadlarda prokuratura organlari faoliyatiga ilg'or ish uslublarini va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, qonunlar ijrosi ustidan nazorat mexanizmlarini muntazam takomillashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va tergov ishiga zamonaviy ilm-fan hamda amaliyot yutuqlarini tatbiq etish, xodimlarning bilim darajasi va ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish, ularning fidokorona mehnatini munosib qadrlash kelgusida ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Ishonchim komil, prokuratura xodimlari **qonun himoyasi — bu xalq va Vatan himoyasi kabi muqaddas burch** ekanini chuqur anglab, zimmlaridagi g'oyat mas'uliyatli va sharaflı vazifani bundan buyon ham samarali ado etadilar.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog'liq, baxt va omad, xonadonlaringizga fayzu baraka, qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash yo'lidagi ishlaringizda ulkan zafarlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

BANDLIK VA TADBIRKORLIK SOHALARIDAGI TAKLIFLAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-yanvar kuni aholi bandligini oshirish hamda tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Rasmiy statistikaga ko'ra, yurtimizda ishsizlar soni 1 million 300 ming nafarni tashkil qiladi. Bu yil yana 2 million 400 ming aholi mehnat bozoriga kirib keladi.

Shularni inobatga olib, sifatlı va yuqori daromadlı ish o'rinlari hisobiga joriy yilda 5 million aholining bandligini ta'minlash maqsad qilingan. Jumladan, xizmatlar sohasida 2,5 million, qishloq xo'jaligida 2,1 million, investitsiya loyihalari va sanoatda 250 ming, qurilishda 140 ming ish joyi yaratish imkoniyati bor.

Bundan tashqari, zamonaviy moliyaviy instrumentlar, jumladan, mikromoliyalashning yangi tizimini keng joriy qilish orqali 2 million aholini biznesga jalb qilish ko'zda tutilmoqda.

Taqdimotda mutasaddilar 2024-yilda yangi ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi bo'yicha axborot berdi.

Davlatimiz rahbari bu dasturni ma'qullab, uni amalga oshirish yuzasidan qo'shimcha ko'rsatmalar berdi.

So'nggi yillarda 2 million 400 ming aholi o'zini o'zi band qilgani ta'kidlanib, endi ularning faoliyatini kengaytirish, bosqichma-bosqich kichik biznesga o'tkazish va bozor topishiga ko'maklashish muhimligi aytiladi. "Mening biznesim" platformasi, "Biznesga birinchi qadam" bank kartalari joriy etilishi buning uchun qulaylik yaratadi.

Iqtisodiy aylanmaga kiritilmagan yerlarni infratuzilmaga ulash, loyihalarni ishga tushirish uchun tashabbuskorlarni qo'llab-quvvatlash zarurligi qayd etildi. "Agregator" tizimi asosida "100 ming eksportchi dehqon" dasturi joriy qilinib, bu yil 15 ming gektar yer maydonlari auksionsiga chiqarilishi belgilandi.

Mehnat tajiga ega bo'lmagan shaxslarni kasb-hunarga o'qitish, ijtimoiy reestrđagi fuqarolarni ishga olgan korxonalarga soliq bo'yicha yengilliklar qo'llash muhimligi ham aytilib o'tildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha qo'shimcha xazira va imkoniyatlarni aniqlash vazifasi qo'yildi.

Taqdimotda tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash tartibini soddalashtirishga oid takliflar ham ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, bu yil yurtimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi. Biznesni yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsad qilingan.

Aytish joizki, shu paytgacha tadbirkorlardan mavjud ma'lumotlarni qo'shimcha ravishda talab qilish holatlari bor edi. Joriy yildan boshlab 34 turgadi hisobotlar bekor qilinmoqda. Buning natijasida har yili 21 mingdan ortiq tadbirkorlarning 500 million so'm xarajati tejalandi.

O'zi, umuman, tadbirkorlar tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarning yagona ro'yxati tasdiqlanmagan. Shu bois davlatimiz rahbari yagona hisobotlar tizimini joriy qilish bo'yicha topshiriq berdi.

Shuningdek, tadbirkorlarga majburiy talablarni qisqartirish maqsadida 16 ta litsenziya va ruxsatnomani bekor qilish lozimligi belgilandi.

Bu borada berilayotgan yengilliklarni tadbirkorlarga yetkazish, ularning takliflarini doimiy o'rganib, statistik hisobotlarni yanada maqbullashtirib borish vazifasi qo'yildi.

O'ZA.

Biz va jahon

Anqarada jadid bobolarimiz merosiga bag'ishlangan konferensiga o'tkazildi

Anqara shahridagi Ijtimoiy fanlar universitetida "Jadidlar izidan: tilda, fikrda va ishda birlik" mavzuida ma'naviy-ma'rifiy konferensiya uyushtirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida tashkil etilgan mazkur tadbir mamlakatimiz elchixonasi tomonidan Turkiy dunyo muhandis va me'morlar uyushmasi bilan birgalikda uyushtirildi.

Anjumanda Turkiston o'lkasida faol bo'lgan jadidchilik harakatining yetakchilari, ularning tariximizda tutgan o'rni, tarixiy va zamonaviy o'zbek davlatchiligining rivojlanish bosqichlari, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz va ta'lim-tarbiya sohasiga qo'shgan ulkan hissalar haqida fikr almashildi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar so'nggi yillarda yangi O'zbekistonda buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz g'oyalarini o'rganish va tiklash borasida katta ishtar amalga oshirilayotganini ta'kidladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimiz prokuratura organlaridagi ko'p yillik fidokorona mehnati, yurtimizda qonuniyligni va huquq-tartibotni mustahkamlashga qo'shgan katta hissi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi ibratli faoliyati, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamiyatimizda huquqiy madaniyatni oshirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi alohida xizmatlari uchun quyidagilar mukofotlansin:

"Mardlik" ordeni bilan

Aminov Shoxrux Azamatovich — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari

Xamdamov Ulug'bek Aslonovich — Farg'ona viloyati Qo'qon shahar prokurori

"Do'stlik" ordeni bilan

Erniyazova Venera Tajetdinovna — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

"Jasorat" medali bilan

Abdilazizov Davronbek Maxmudjonovich — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Andijon viloyati boshqarmasi bo'lim boshlig'i o'rinbosari

Buronov Nurbek Erkinovich — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Samarqand viloyati boshqarmasi bo'lim boshlig'i

"Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan

Boltayev Halim Husanboyevich — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i

Muratov Jaxongir Dilshatovich — Toshkent shahar Chilonzor tumani prokurori

Sayfulloyev Erkin Xudoyorovich — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Navoiy viloyati boshqarmasi bo'lim boshlig'i o'rinbosari

Fayziyev Vaxob Kamolovich — Buxoro viloyati Kogon shahar prokurorining katta yordamchisi

"Shuhrat" medali bilan

Abdulkimov Murodullo Togayevich — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i

Karimov Xurshid Akramovich — O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi kafedra boshlig'i

Qodirov Abdumomin Abdumajit o'g'li — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Surxondaryo viloyati Sherobod tumani bo'limi davlat ijrochisi

Tashpulatov Xurshid Sabirjanovich — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Toshkent shahar Yunusobod tumani bo'limi boshlig'i

Xabiljonov Ulug'bek Xabiljon o'g'li — Toshkent viloyati Angren shahar prokurori

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 8-yanvar

FIDOKORONA MEHNAT E'TIROFI

Poytaxtimizdagi "Turkiston" saroyida 8-yanvar — O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri tashkil etildi.



Tinch va osoyishta yashash, ezgu orzu-umidlar sari dadil intilish har bir inson uchun eng katta ne'mat. Ayniqsa, bugungi globalashuv jarayonida dunyoga bir nazar solib, avj olayotgan turli notinchiliklarni ko'rib, ommaviy axborot vositalari orqali bevosita kuzatib, yurtimiz tinchligiga, xalqimiz farovonligiga shukrona keltiramiz, albatta.

Tadbir

Mana shu osoyishtaligu xotirjamlikni saqlashda jasorat namunalari ko'rsatib, tunu kun mehnat qilayotgan huquqni muhofaza etuvchi idoralar xodimlari, qolaversa, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlovchi Vatan posbonlari mehnati esa shak-shubhasiz e'tirof e'zozga munosibdir.

Poytaxtimizdagi "Turkiston" saroyida O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi tashkil topganining 32 yilligi hamda 8-yanvar — O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuniga bag'ishlangan bayram

tadbiri uyushtirildi. Dastlab Davlat madhiyasi yangradi.

Prezident Administratsiyasi, Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Hukumat a'zolari, prokuratura organlari xodimlari va faxriylari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilik vakillari hamda yoshlar qatnashgan ushbu tantanali tadbirda davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari va faxriylariga yo'llagan tabrigini Prezident maslahatchisi Doniyor Qodirov o'qib eshittirdi.

Tabrikda aytilganidek, so'nggi yillarda prokuratura sohasini tubdan isloh etish, bu borada ochiqlik va adolatga asoslangan, fuqarolar va jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan, xalqparvar qarorlar chiqarish, o'z nazariy va amaliy maktabiga, fidoyi va professional xodimlar korpusiga ega bo'lgan tizimni shakllantirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmogda.

Ta'kidlash joizki, fuqarolarning Bosh qomusimizda mustahkamlangan huquq hamda erkinlarini ishonchli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda prokuratura organlarining alohida o'rni bor. Ayniqsa, odamlar bilan erkin muloqotga kirishish, ularning muammolarini o'rganib, joyida hal etish tizim faollarining eng asosiy vazifasiga aylandi, desak, ayni haqiqat.

FIDOKORONA MEHNAT E'TIROFI



Bugun prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borish faoliyati tubdan o'zgartirildi. Avvallari qonunbuzilish holatlarini aniqlash va jazolashga katta urg'u

berilgan bo'lsa, endi asosiy e'tibor bunday holatlarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilayotir. Bu esa ishda samaradorlik va natijadorlikni yanada oshirmoqda. Qolaversa, keyingi

yillarda prokuratura tizimi "jazolovchi idora" emas, balki aholi hamda tadbirkorlarning buzilgan huquqlarini tiklashga ko'maklashadigan haqiqiy ma'nodagi "xalq prokuraturasi"ga aylanmoqda.

Tahillarga murojaat qiladigan bo'lsak, oxirgi yetti yilda prokuratura organlari tomonidan 2 millionga yaqin murojaatlar ijobiy hal etilib, 300 mingdan ziyod fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklangan. Ayni chog'da qariyb 148 ming tadbirkorning muammolariga yechim topilgan. Shu bilan birga, prokurorlarning mehnatlari bilan sektorlardagi 163 mingdan ziyod ehtiyojmand oilalarga har tomonlama ko'mak ko'rsatildi. Natijada hayotda o'z yo'lini topganligi bois qisqa muddatda mazkur oilalarning qariyb 96 foizi ehtiyojmandlar ro'yxatidan chiqarildi. Shularning o'ziyoq, bugungi prokuratura tizimi va faollarining amaliy ishini yaqqol namoyon etib turibdi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, sohada yetuk kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, tergov hamda huquqni muhofaza qilish bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash tizimi ham sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi, deiyshga asoslarimiz bor. Bunda, tabiiyki, Bosh prokuratura akademiyasi negizida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston prokuraturasi g'oyat sharaflı rivojlanish yo'lini bosib o'tib, huquqni qo'llash sohasida o'z maktabiga, professional xodimlar korpusiga ega tizim sifatida shakllandi. Tadbirda tizimda erishilgan yutuqlar e'tirofi bilan birga, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar haqida ham to'xtalib, qonunbuzilishlarga murosasiz bo'lish — prokuratura xodimlarining konstitutsiyaviy burchi va eng asosiy vazifasi ekani aytib o'tildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan mamlakatimiz prokuratura organlaridagi ko'p yillik fidokorona mehnati, yurtimizda qonuniyligni va huquq-tartibotni mustahkamlashga qo'shgan katta hisssasi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat hamda davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi ibratli faoliyati, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamiyatimizda huquqiy madaniyatni oshirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi alohida xizmatlari uchun orden va medallar bilan taqdirlangan tizimning bir guruh faollariga yuksak mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

Bayram tantanasi san'at ustalari ijrosidagi konsert dasturi bilan davom etdi. Tadbirda Oliy Majlis Senati Raisi T. Norboyeva, Bosh prokuror N. Yo'ldoshev qatnashdi.

Bayram tantanasi san'at ustalari ijrosidagi konsert dasturi bilan davom etdi.

Tadbirda Oliy Majlis Senati Raisi T. Norboyeva, Bosh prokuror N. Yo'ldoshev qatnashdi.

Soʻz — tadbir ishtirokchilariga

Venera ERNIYAZOVA, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshlig'i o'rinosari, "Do'stlik" ordeni sohibasi:

— Prezidentimiz Farmoni bilan nufuzli davlat mukofoti bilan taqdirlanganim bayramga munosib tuhfa bo'ldi. Bu yangilanayotgan O'zbekistonda inson qadriga munosabatni, mamlakat ravnaqi, xalqimizning farovonligi yo'lidagi jonkuyarlik bilan yashayotgan, mehnat qilayotgan kishi, albatta, e'tirof etilishi, rag'batlantirilishiga ishonchimni yana bir bor mustahkamladi.

Davlat mukofoti — bu ulkan e'tirof. Mehnatlar, izlanishlarning munosib taqdirlanishi. Ushbu rag'bat ruhimni yanada ko'tarib, ayni chog'da yangi kuch bilan oldinga undaydi.

Ulug'bek HAMDAMOV, Farg'ona viloyati Qo'qon shahar prokurori, "Mardlik" ordeni sohibi:

— Ochig'i, bugun mukofot men uchun kutilmagan sovg'a bo'ldi. Sohadagi kamtarona mehnatlarim yuksak baholanib, "Mardlik" ordeni bilan taqdirlanganimdan g'oyatda xursandman. Albatta, bu menga juda katta mas'uliyat va javobgarlik yuklaydi.

Bu yil mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi.

Shundan kelib chiqib, joriy yilda yoshlarni, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlab, ularni qiynayotgan muammolarini hal etishda yanada faol bo'lamiz.

Bu ishonchni oqlash uchun yanada shijoatli bo'lishga, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz manfaati uchun barcha kuch va g'ayratimni ishga solishga intilaman.

Xurshid TOSHPOLATOV, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Toshkent shahar Yunusobod tumani bo'limi boshlig'i, "Shuhrat" medali sohibi:

— Bilasizmi, bugun davlatimiz rahbari

boshchiligidagi olib borilayotgan islohotlar, avvalo, inson manfaatlariga qaratilgan. Tizim xodimlari ushbu jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanmoqda, desam, adashmayman. Bugun MIB faoliyatini yanada takomillashtirish, sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi xalq farovonligini ta'minlash va ularni rozi qilishda muhim o'rinni tutadi.

Berilgan mukofotni shijoatimiz, salohiyatimiz bilan oqlaymiz, albatta.

Rahim SHERQULOV ("Xalq so'zi").

Yunus BO'RIYEV olgan suratlar.

Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

QIZG'IN BAHS-MUNOZARALAR ASOSIDA O'TDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida yilning ikkinchi haftasi qizg'in ish faoliyati bilan boshlandi. Siyosiy partiyalarning quyidagi palatadagi fraksiyalari tomonidan o'tkazilgan yig'ilishlarda aholi huquq va manfaatlarini ta'minlash, salomatligini muhofazalash, sudlar mustaqilligini yanada mustahkamlash, mamlakat sanoatini rivojlantirish, xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarini kafolatlashga qaratilgan bir qator qonun loyihalari mufassal ko'rib chiqildi. Muhokamadagi masalalar yuzasidan munozarali savollar o'rtaga tashlandi, asosli takliflar ilgari surildi.

Ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama markazida bo'ldi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi belgilangan. Bu bir necha yillardan buyon jamiyatimizdagi o'tkir muammolardan biriga aylangan "snos" bilan bog'liq masalaga nisbatan oqilona yechim bo'ldi. Asosiysi, sud qarorisiz uy-joyga nisbatan mulk huquqidan mahrum qilinmasligi, shuningdek, imorat buzilishga tushadigan bo'lsa, buning uchun buzishdan oldin uning qiymatiga mos ravishda kompensatsiya to'lanishi shartligining belgilanishi "snos" degan muammoga butunlay barham berdi.

Ta'kidlanganidek, taklif etilayotgan qonun loyihasi bilan hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum qilinishiga yo'l qo'yilmasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati va u ko'rgan zararlarining o'rni qonunda nazarda tutilgan holdarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi kafolatlanishi belgilanmoqda.

Qizg'in muhokama va savol-javoblar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasining zarurati va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdi. Ayrim normalar bo'yicha asosli savollar o'rtaga tashlandi va ularga qonun tashabbuskorlaridan atroflicha javoblar olindi.

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat — "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga bolalar sog'lomlashtirish oromoghlarining faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Unda kasaba uyushmalari tizimidagi bolalar sog'lomlashtirish oromoghlarini negizida ochilgan dam olish maskanlarini (dam olish uylari va dam olish zonalarini) majburiy sertifikatlashtirish talabida hamda ularning ushbu yo'nalishdagi xizmatlarni ko'rsatishdan olgan foydasini ma'lum muddatga foyda solig'idan ozod etish nazarda tutilmoqda, — dedi Qonunchilik palatasi deputati G'ayrat Abdiyev. — Mazkur loyihaning qabul qilinishi kasaba uyushmalari tizimidagi bolalar sog'lomlashtirish oromoghlarining yil davomida samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, asosiysi, yo'llanmalar narxini barqarorlashtirishga yo'l ochadi.

Yig'ilishda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Endi sudyalarga faqat OAV orqali axborot berib boradi

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida sudlar mustaqilligi kafolatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan qonun loyihasi qizg'in muhokama qilindi.

Ushbu hujjat bilan sudlar raislarining mahalliy Kengashlarga bir yilda kamida bir marta axborot taqdim etishi haqidagi qoida bekor qilinmoqda. O'z navbatida, sudlar faoliyatida shaffoflikni yanada ta'minlash maqsadida sudlarning har chorakda o'z faoliyati to'g'risida jamoatchilikni ommaviy axborot vositalari orqali xabarador etish tartibi belgilanyapti.



Chunki sudlarning mahalliy Kengashlarga axborot berishlariga oid xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda, sudlarning davlat hokimiyati boshqa tarmoqlaridan mustaqil bo'lishini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilgani aniqlandi.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov qonun loyihasiga munosabat bildirar ekan, sudyalari avtonom ekanini, ularning erkinligini ta'minlash uchun ochiq hisobot berish majburiyatidan xalos qilish lozimligini ta'kidlab, Quyi palata deputati Jahongir Shirinov bu fikrni qo'llab-quvvatlab, sud tizimining boshqa hokimiyat organlariga hisobot berishi konstitutsiyaviy normalarga zid ekanini qayd etdi.

Qonun tashabbuskorlarining aytishicha, taklif qilinayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar sud hokimiyatining mustaqilligini to'laqonli ta'minlash kafolatini yanada mustahkamlaydi.

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat — "Prekursorlarni ishlab chiqarish jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston

Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuning 19-moddasiga o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kaliy sulfat, kolloksilin, ammos, monoammoniy fosfat kabi import o'rini to'liq bosuvchi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Sulfat kislotasi ushbu kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarishning asosiy xomashyosi hisoblanadi.

Lekin sulfat kislotasi tegishli tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetkazib berilishiga qaramasdan, yildan-yilga unga qo'shimcha talab ortib boryapti. Shu munosabat bilan kimyo sanoatida sulfat kislotasi ishlab chiqarishning zamonaviy yangi quvvatlarini tashkil etish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Muhokama davomida fraksiya a'zosi Zumrad Bekatova mazkur qonun loyihasining ahamiyati haqida to'xtalar ekan, uning zaruratiga alohida e'tibor qaratdi. Ayrim normalar yuzasidan o'z fikr-mulohazasi va takliflarini bildirdi.



Ta'kidlanganidek, mazkur hujjatning qabul qilinishi kimyo sanoatida sulfat kislotasi ishlab chiqarishning zamonaviy yangi quvvatlarini tashkil etish orqali respublikada sulfat kislotasiga bo'lgan talabni qondirishga asos bo'ladi.

Qizg'in savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Qat'iy huquqiy asos yaratilmoqda

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Sudlar mustaqilligi kafolatlarini yanada mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama markazida bo'ldi.

Ma'lum qilinganidek, mamlakatimizda sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, malakali kadrlarni tanlash, sudyalik kasbiga tayyorlash va tayinlash

tizimini takomillashtirish, shuningdek, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish bo'yicha izchil ishlar olib borilayotir. Ushbu qonun loyihasi ham sudlar mustaqilligi kafolatlarini to'laqonli ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sud hokimiyatining mustaqil holda ish yuritishi va sudyalari muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmisligiga oid konstitutsiyaviy kafolatlar belgilab qo'yilgani sud faoliyatining samaradorligini oshirishda yana bir muhim qadam bo'ldi.

Taklif qilinayotgan qonun loyihasida sudlar raislarining mahalliy Kengashlarga bir yilda kamida bir marta axborot taqdim etishi haqidagi qoida bekor qilinayotganligi munosabati bilan sudlarga har chorakda o'z faoliyati to'g'risida jamoatchilikni ommaviy axborot vositalari orqali xabarador etib borishi belgilanmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi orqali sud hokimiyatining mustaqilligi to'laqonli ta'minlanishi uchun kafolatlar yanada mustahkamlanadi. Shu bilan birga, sudyalarga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday vazifalar yuklatilishining oldi olinib, jamiyatning sudlar faoliyati to'g'risida muntazam axborot olib borishi uchun qat'iy huquqiy asos yaratiladi.

Qizg'in muhokama chog'ida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan partiya pozitsiyasidan kelib chiqib o'z fikr-mulohazalarini, takliflarini bildirdi.

Sud idorasiga ishi tushgan har bir shaxs ushbu dargohda qonun va adolat ustuvor ekaniga ishonch hosil qilishi kerak, — dedi Qonunchilik palatasi deputati Inomjon Quدراتov. — Oxirgi yillarda mamlakatimizda sud tizimini tubdan isloh etish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad ham sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudyalik kasbiga tayyorlash va tayinlash tizimini takomillashtirishdan iboratdir. Zero, Prezidentimiz aytganidek, sudlar chin ma'noda adolat maskaniga aylanishi uchun sudyalarning mustaqilligini ta'minlash eng muhim vazifadir. Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi esa sudyalari mustaqilligini va pirovardida samarali odil sudlovni yanada ishonchli ta'minlashga zamin vazifasini o'taydi.

Bolalar oromoghlarini imkoniyatlari kengaytiriladi

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga bolalar sog'lomlashtirish oromoghlarining faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini ko'rib chiqdi. Mazkur hujjat bilan kasaba uyushmalari tizimidagi bolalar sog'lomlashtirish oromoghlarini bolalarning dam olish mavsumidan tashqari vaqtida dam olish maskanlari sifatida foydalanishini tashkil etish va bundan olinadigan daromadlari bo'yicha ma'lum bir muddatga foyda solig'idan ozod qilinishi belgilanmoqda. Bundan tashqari, oromoghlarining majburiy ravishda sertifikatlashtirilishi talab etilmasligi nazarda tutilmoqda.

Deputatlar loyiha bolalar sog'lomlashtirish oromoghlaridagi sharoitlarni yanada yaxshilash, kelajagimiz bo'lmish farzandlarimizning ta'lini mazmunli o'tkazishi, ularni sog'lomlashtirish va

aqliy rivojlantirish bo'yicha vazifalar samaradorligini oshirishga xizmat qilishini e'tirof etdilar. Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ma'qullandi.

Yig'ilishda, shuningdek, "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham muhokama etildi.

Taklif qilinayotgan me'yorlar orqali Uy-joy kodeksi hamda "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasi muhokamasida uning qabul qilinishi, birinchi navbatda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni so'zsiz amalga oshirishga, xususiy mulkni himoyalash va mulkdorlar huquqlarining ta'minlanishiga xizmat qilishini ta'kidlashdi.

Nazarda tutilayotgan o'zgartirishga muvofiq mulkdorlarni sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joydan mahrum etishga yo'l qo'yilmaydi. Turli sabablarga ko'ra uy-joyidan mahrum qilingan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararining oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi kafolatlanishi belgilanmoqda. Qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Mulkdorlar manfaatlarini kafolatlanadi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zolari "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasida so'nggi yillarda xususiy mulk va unga bo'lgan huquqlar daxlsizligining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklashga dori tizimli ishlar amalga oshirilayotganini e'tirof etdilar.

Aytilganidek, qonun loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiqashtirilmoqda. Jumladan, Uy-joy kodeksida hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum qilingan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararining o'rni qonunda nazarda tutilgan holdarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi lozimligi, turarjoylarning tashqi ko'rinishini o'zgartirish, ularni qayta qurish yoki buzish shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi haqidagi normalar mustahkamlanmoqda.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uning o'rni belgilangan tartibda qoplanishi orqali xususiy mulkni muhofazalash va mulkdorlar huquqlarini kafolatli ta'minlashga asos bo'lishini ta'kidladilar.

Munozaralar yakunida uni takomillashtirishga qaratilgan bir qator taklif va tavsiyalar berildi hamda qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Fraksiyalar yig'ilishlarida, shuningdek, kun tartibidagi boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

QONUN IJROSIDA SHAFFOFLIK

Avval xabar qilinganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo'mitalari tomonidan tashkil etilayotgan brifinglarda qo'mitalarning 2023-yildagi faoliyati haqida axborot berilib, kelgusidagi vazifalar belgilab olinmoqda.

Quyida palataning Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi brifingida ma'lum qilinganidek, hisobot davrida agrar va suv xo'jaligi sohasini yanada rivojlantirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini taraqqiy ettirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, yer islohotlarini olib borish kabi muhim yo'nalishlarning huquqiy poydevorini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratildi.

O'tgan davrda qo'mita qonun ijodkorligi yo'nalishida 11 qonun loyihasi uchun mas'ul bo'lgan. Shuningdek, tuproq unumdorligini oshirish va uning muhofazasi, gidrotexnika inshootlari xavfsizligini ta'minlash, o'simliklarni himoya qilish sohasidagi munosabatlarni

tartibga solishga qaratilgan 3 ta yaxlit qonun ustida ish olib borildi.

Qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularning har jihatdan pishiq-puxta bo'lishida qo'mita ishchi guruhlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hisobot davrida qo'mita mas'ul bo'lgan qonun loyihalarini muhokamasi bo'yicha jami 54 ta yig'ilish o'tkazilgan.

Shuningdek, qonunlar va qonunositi hujjatlari ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat-tahlili tartibida o'rganish hamda ular yakunlari bo'yicha davlat va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining axborotini eshitishga alohida e'tibor qaratildi.

2023-yilda saylovchilar tomonidan ko'tarilayotgan

masalalar va joylarda olib borilayotgan o'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklar hamda muammolarga mutasaddilar e'tiborini qaratgan holda hal etishga ham jiddiy yondashildi.

Bundan tashqari, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "O'simliklar karantini to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunlarning joylardagi ijro etilish holati Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida o'rganildi.

Brifingda ortda qolgan yil qo'mita uchun samarali va natijalarga boy bo'lgan ta'kidlandi. Xususan, qo'mita tashabbusi bilan Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qarshi magistrat kanalidan foydalanish boshqarmasi xodimlariga mahalliy budjetdan to'lab kelinayotgan oylik maosh 2024-yildan boshlab respublika

budjetidan to'lanadigan bo'ldi. Bu orqali xodimlarning ish haqi sezilarli oshirilishi va ular ijtimoiy himoyasi to'liq ta'minlanishiga erishilgan.

Shu bilan birga, o'tgan davrda qo'mita a'zolari tomonidan mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan jami 9 ta deputat so'rovi yuborilgan. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida o'rganish, ularni hal etishga alohida e'tibor qaratildi, qo'mita nomiga kelib tushgan 300 ta murojaat belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, ularning salmoqli qismi ijobiy yechim topdi.

Hisobot davrida qo'mita faoliyati ommaviy axborot vositalarida jami 1 556 marotaba yoritilgan.

Brifingda qo'mitaning kelgusidagi faoliyati haqida ham axborot berildi.

xususan, saylovchilar bilan muloqotlari doimiy yo'lga qo'yilgani, natijada ko'plab masalalar ijobiy yechim topgani alohida qayd etildi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida o'rganish hamda ularni hal qilishga alohida e'tibor qaratilgani ham aytib o'tildi.

Bundan tashqari, qo'mita faoliyati haqida keng jamoatchilikni o'z vaqtida xabardor etish, nazorat-tahlil tadbirlari yakunlari va qo'mita mas'ulligida ko'rib chiqilayotgan qonun loyihalarining mazmun-mohiyatini aholiga muntazam ravishda tushuntirib borish bo'yicha ham muayyan ishlar amalga oshirilgani ta'kidlandi.

Brifing davomida qo'mitaning kelgusidagi faoliyati haqida ham axborot berildi.

"Xalq so'zi".

Anqarada jadid bobolarimiz merosiga bag'ishlangan konferensiya o'tkazildi



Jumladan, 2023-yil 11-dekabr kuni Toshkent shahrida "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va

davlatchilik g'oyalari" mavzuida ilmiy konferensiya yuqori saviyada tashkil qilingani va unda turk dunyosining yetakchi

olimlari Turkistonda taraqqiy topgan jadidchilik harakati haqidagi o'z ma'ruzalari bilan qatnashgani qayd etildi.

Shuningdek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan jadid bobolarimiz merosini tiklash bo'yicha bildirilgan tashabbuslarining mazmun-mohiyati va ahamiyati turk ziyolilariga yetkazildi.

Ma'rifatparvar bobolarimiz g'oyalarini o'rganish va rivojlantirish bo'yicha qaror qabul qilinishi hamda Buxoro shahrida Jadidlar merosi

davlat muzeyi ochilishi alohida qayd etildi.

O'z navbatida, Turkiya vakillari 2024-yil 1-yanvardan boshlab mamlakatimizda "Jadid" nomli yangi gazeta tashkil etilganini mamnuniyat bilan qarshi oldilar. Ular, shuningdek, buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz nomi ostida chop qilinaotgan ushbu gazetada o'zlarining tahliliy maqolalari bilan qatnashish istaklarini ham bildirdi.

"Dunyoy" AA.
Anqara

MIRISHKORLIK SINCHKOVLIK VA PUXTALIK DEMAKDIR

Yurtimizda keyingi yillarda yerdan unumli foydalanish, xususan, aholi tomoqasida ilm-fan yutuqlari, innovatsion yangiliklar asosida dehqonchilik qilish hamda daromad olish jadal rivojlanyapti. Buning samarasi yilning to'rt faslida ham bozorlardagi mo'l-ko'pchilikda namoyon. Bu esa narx-navo barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Izlanish

Shu nuqtaiy nazardan, bugungi kunda yopiq maydondagi issiqxonalarda harorat va namlikning me'yoriy darajadalgini hisobga olsak, bunday sharoitda zararkunandalar va kasalliklar yaxshi rivojlanib, o'simliklarga zarar yetkazishi mumkin.

Farg'ona viloyatida aholi tomoqalari, fermer va dehqon xo'jaligi issiqxonalarda pomidor, qalampir, shirin garmdori, bodring, baqlajon, qulupnay, sitrus mevalari baravj rivojlanyapti. Shu sababli issiqxonalarda zamburug'li kasalliklarning rivojlanishiga sharoit tug'dirmaslik, fuzarioz, fitoftoroz, ildiz chirishi, un shudring va soxta un shudring kabi bir qator kasalliklarning oldini olish muhimdir.

— Bunday kasalliklarga namlikning



yuqoriligi, kunduzgi va tungi harorat o'rtnasidagi tafovutlarning kattaligi, me'yorida sug'ormaslik, bevaqt oziqlantirish, kimyoviy o'g'itlardan noto'g'ri foydalanish va gigiyena qoidalariga amal qilmasslik asosiy sabab bo'ladi, — deydi Farg'ona viloyati O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi fitosanitariya laboratoriyasi mudiri Abduraufo Mahmudov. — Misol uchun, birgina pomidorning famoz (jigarrang chirish) kasalligi, ya'ni hosil bandining chirishiga namlikning ortishi, bachki tomchilarining ko'payishi sabab bo'ladi. Meva bandida joylashgan gullarga chakki tomchilari tushgach gullari zamburug'lar orqali chiriy boshlaydi. Oqibatda qulburgi atrofi chirib, mevalar to'kiladi. Holbuki,

zamburug'li kasallikning oldini olish uchun issiqxonalarni tez-tez shamollatib turish va namlikning ortishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Bugungi kunda laboratoriyamiz zamonaviy mezonlar asosida faoliyat ko'rsatishi uchun barcha qulaylik yaratilgan bo'lib, ko'chma laboratoriya xizmati orqali mutaxassislarimiz shahar-tumanlarda mirishkorlarga mo'l hosil yetishtirishda ko'maklashib kelmoqda. Maqsad — dehqon bozorlarini arzon va sifatli, ekologik toza noz-ne'mat mahsulotlari bilan to'ldirilishiga hissa qo'shish.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

Raqamli transformatsiya: KIBERJINOVATLARNING OLDINI OLISHDA YANGICHA YONDASHUV

Jahonning turli mamlakatlarida jinoyatchilikka qarshi kurashish yo'nalishidagi tadqiqotlar natijalari yildan-yilga uning sur'atlari o'zgarib, yangicha rivojlanish bosqichlarini namoyon etayotganidan dalolat berayotir. Mazkur tendensiyaning saqlanib qolishi jinoyatlarning yangi ko'rinishlari shakllanishiga turkib bo'lmoqda.

Aynan raqamlashtirishning yuqori sur'atlarda rivojlanishi ta'sirida jinoyatlarning shakllari va uning usullari zamonaviylashib, axborot texnologiyalaridan foydalanib shaxsga va uning mulkiga tajovuz qilishga qaratilgan huquqbuzarliklar kiberjinoyatchilikning sodir etilishida asosiy omil bo'lib xizmat qilyapti.

Dolzarb mavzu

Shu sababli ham hozirgi vaqtda butun dunyoda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmog'da. Kiberjinoyatlarning turlari va ushbu jinoyatni sodir etayotgan shaxslarning soni ortib borayotganligi yangi tadbirlarning yuzaga kelishi bilan izohlanayapti.

Tahlillar va statistik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, 2022-yilda kiberjinoyatlar ortidan keladigan yillik global zarar 8,4 trln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga borib bu ko'rsatkich 120 foiz o'sib, 20 trln. AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, ayrim manbalarda ta'kidlanishicha, 2024-yilda kiberjinoyatlar global transmilliy jinoyatlarning umumiy sonidan ko'ra 5 barobar ko'proq sodir etilishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, 2025-yildan e'tiboran, dunyoda kiberjinoyatlarga qarshi kurashuvchi tuzilmalar davlat va xususiy serverlari, bulutli ma'lumot markazlari, shaxsiy kompyuter va quрилmalarga saqlanadigan jami 2 ming zettabaytlik (2 trln. terabayt) ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashi lozim bo'ladi. Chunki kiberjinoyatchilikning avj olishi oqibatida istalgan korxona-tashkilotning ma'lumotlar bazalarini kiberhujumga uchrashi ehtimolini rad etib bo'lmaydi. Shu sababli bu borada mustahkam himoya choralarini ko'rish talab etiladi. O'z navbatida, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda ushbu turdagi jinoyatlarning latentligini inobatga olish kerak bo'ladi.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, kiberjinoyatlarning latentligi AQSHda 80 foiz, Buyuk Britaniyada — 85, Germaniyada — 75, Rossiyada 90 foizdan yuqori raqamlarga borib taqaladi. Bu kiberjinoyatlarning sodir etilishi bo'yicha real holatlar statistikasi bundan ham

o'suvchan ko'rsatkichlarni tashkil qilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Yuqorida keltirilgan tahlillar hamda statistik ma'lumotlar asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi va real vaqt rejimida cheksiz axborot almashinuvi imkoniyatlarining ortib borishi sharoitida kiberjinoyatlar murakkab transmilliy muammoga aylanib borayotganligini yuzaga keltirayotir. Bu esa kibermakonda xavfsiz muhiti yaratish uchun innovatsion yondashuvlar asosida kiberjinoyatlarga qarshi kurashish usullarini ishlab chiqishni taqozo qilyapti.

Bugungi kunda jahonda ilmiy tadqiqotlar doirasida kiberjinoyatlarning oldini olish va kibermakonda xavfsiz muhiti yaratish uchun turli yondashuv hamda uslublar taklif etilmoqda.

Xususan, kiberjinoyatlarni tergov qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi "Group-IB" kompaniyasi prezidenti Ilya Sachkovning ta'kidlashicha, agar foydalanuvchi kibexavfsizlik qoidalarini bilsa, u kibermakonda doimo xavfsiz bo'ladi. "Group-IB" kompaniyasi tomonidan o'n yil davomida kiberfiribgarlar shaxsiy ma'lumotlarni o'zlashtirmasligini nazarda tutuvchi maxsus eslatmalar ishlab chiqildi. Ammo bu eslatmalarning jamiyatda juda sekin tarqalishi tufayli mazkur usul o'z samarasini bermagan.

Mazkur yo'nalishdagi yetakchi tadqiqotchi U. Dizard axborot jamiyatining raqamli transformatsiyasi sharoitida bir qator muammoli masalalarni hal qilish uchun yangi texnologiyalar taqdim etayotgan imkoniyatlar doimo hisobga olinishi va ularga qarshi kurashishi kerak bo'lgan potentsial xavflarni o'z ichiga olishi lozimligini taklif qilgan. Uning fikricha, mazkur masala bo'yicha rivojlanish strategiyasi ma'lum darajada texnik va iqtisodiy qarorlar qabul qilinishi bilan

belgilanishi kerak.

C. Emmery, E. Lefever, G. Jeykobs, B. Desmet kabi olimlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan jazo choralarini kuchaytirish orqali kiberjinoyatlarning oldini olish mumkinligi ta'kidlangan.

Qolaversa, T. Shelina, K. Itinson, A. Kireeva, V. Toporovskiy va boshqalar tomonidan kiberjinoyatlarning oldini olish muammolari ta'lim jarayoni subyektlarining raqamli savodxonligi bilan bog'liqligi asoslab berilgan. Ular o'z ilmiy xulosalarida kiberjinoyatlarning oldini olishda raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan samarali foydalanishni, fan dasturlariga "Kibexavfsizlik asoslari" o'quv fanini barcha o'quvchilar uchun majburiy fan sifatida kiritishni taklif qilganlar.

Kiberjinoyatlarning oldini olish bo'yicha ilmiy markazlar va tadqiqot muassasalari bilan birga ayrim rivojlangan davlatlarda yetarlicha strategik usullar ishlab chiqilgan. Xususan, Singapur, AQSH, Janubiy

"Tahlillar va statistik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, 2022-yilda kiberjinoyatlar ortidan keladigan yillik global zarar 8,4 trln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga borib bu ko'rsatkich 120 foiz o'sib, 20 trln. AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, ayrim manbalarda ta'kidlanishicha, 2024-yilda kiberjinoyatlar global transmilliy jinoyatlarning umumiy sonidan ko'ra 5 barobar ko'proq sodir etilishi kutilmoqda."

Koreya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ilg'or tajribaga ega davlatlar tomonidan uzoq yillik strategik masalalar qo'yilib, bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan kiberjinoyatlarning oldini olish borasida ayrim masalalar yechilgani kuzatilgan.

Shuningdek, mazkur yo'nalishlar xalqaro tashkilotlar, xususan, NATO tomonidan ham global muammo sifatida qayd etilgan. Ushbu muammoning ahamiyati blokning so'nggi yillarda qabul qilingan barcha boshqaruv hujjatlarida ham o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, bolalarining kiberjinoyatlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish maqsadida YUNISEF tomonidan ham bir nechta yirik loyihalar amalga oshirilgan.

Yuqorida keltirilgan dolzarb

masalalar yuzasidan jamiyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida kiberjinoyatchilikning barvaqt oldini olishda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining kiberjinoyatlarga qarshi kurashuvchi bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan va joriy etilgan o'ziga xos yechimlarni ko'rib chiqamiz.

Dastlab yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari, ilg'or indeksli reytinglarni yurituvchi muassasalar tomonidan bir nechta davlatlarda kibertahdidlardan jabrlangan va kiberjinoyat uchun javobgarlikka tortilgan, ehtimoliy kiberjinoyatlar qurboni bo'lishi mumkin bo'lgan fuqarolar hamda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalarning yakuniy natijalari tahlidan o'tkazildi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra dunyo aholisining aksariyat qismi internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xavfsizligiga amal qilmayotganliklari

38 foiz mobil quрилmalar foydalanuvchilari quрилmalar xavfsizligini ta'minlash (suqilib kirishlar, noma'lum kontentlarni bloklash va boshqa) ko'nikmalarga ega emasligi qayd etilgan. O'tkazilgan so'rov tadqiqotlari natijalari internet va ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining aksariyat qismi dastlabki kibexavfsizlikning choralarini bilmasliklari oqibatida kiberjinoyat jabrlanuvchisi bo'lish ehtimoli mavjudligidan dalolat beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, fuqarolarni kibertahdidlardan barvaqt ogohlantirish, ularni kibexavfsizlikning dastlabki alomatlariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish yo'nalishidagi eng dolzarb vazifalardan biri ekanligi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan mazkur vazifa samarali ravishda amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida respublikada kibermakondan faol foydalanish layoqatiga ega 5 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan barcha aholini qamrab oluvchi "Uch qatlamli kompleks targ'ibot chora-tadbirlarini olib borish mexanizmi" ishlab chiqilib, to'liq joriy etilishi belgilab olindi.

"Uch qatlamli kompleks targ'ibot chora-tadbirlari" ta'lim muassasalarida yoshlar, mahallalarda yashovchi aholi vakillari bilan hamda korxona-tashkilotlarining ishchi-xizmatchilari o'rtasida o'ziga xos usulda o'tkazildi.

Jumladan, o'quv maskanlari yoshlari bilan ta'lim muassasalari veb-saytlarida, "E-kundalik" platformasida kibexavfsizlik sahifasi joriy etilib, ularning kiberjinoyatchilar tuzog'iga tushib qolishdan xabardorligini oshirish uchun targ'ibot materiallari joylashtirib berildi.

"Tik-toker" va blogerlar bilan "Ham kiberjinoyatga qarshiman" xeshsetgi ostida onlayn hamda oflayn tadbirlar, haftaning har chorshanba kuni "Talabalar shaharcha"sida "Kibergigiyena kuni" etib belgilanib, "CyberDay" xeshsetgi ostida tadbirlar, seminar hamda treninglar uyushtirildi. Yoshlarni yangi turdagi kibertahdidlardan ogohlantirib boruvchi qo'llanmalarga ega bo'lgan, ko'p funksiyali mobil ilova ishlab chiqildi.

Mahalla fuqarolari bilan ham muntazam ish olib borildi. Hokim yordamchilarini jalb qilgan holda kiberjinoyatchilik

profilaktikasi bo'yicha namunal mahallalar shakllantirildi. "Mahallamizda kiberjinoyat bo'lmaydi" shiori ostida targ'ibot tadbirlari tashkilashirildi.

Profilaktika inspektorlari foydalanuvdagi planshetlarga kiberjinoyatlar va unga qarshi kurashish bo'yicha elektron qo'llanmalar o'rnatildi. Pensionerlar tomonidan bank plastik karta raqamlarini va SMS-xabarnomalarini begona shaxslarga bermaslik bo'yicha manzilli targ'ibotlar olib borildi.

Ana shunday targ'ibot-tushuntirish tadbirlari korxona hamda tashkilotlarning ishchi-xizmatchilari o'rtasida ham o'tkazilib, tashkilotlarga kirishda, ko'pchilik to'planadigan joylarda targ'ibot materiallari joylashtirib berildi.

Bundan tashqari, respublikaning barcha hududini va aholi to'liq qamrab olinishiga erinish maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan kibertahdidlarga oid murojaatlarni qabul qilish va kibexavfsizlik bo'yicha yo'riqnomalarni berib borishda qulay, tezkor va maqbul bo'lgan qo'shimcha manbalari joriy etildi.

Bunday usullar "kibermakon"da xavfsiz muhiti ta'minlash bo'yicha taklif etilgan mutlaqo yangi yondashuv bo'lib, mazkur usul kiberjinoyatlarga barvaqt to'siq bo'lishning universal yechimlarini o'z ichiga olishi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasida yuqorida ko'rsatilgan "Uch qatlamli kompleks targ'ibot chora-tadbirlarini olib borish mexanizmi"ning samarali yo'lga qo'yilishi natijasida ko'plab yutuqlarga erishilmoqda.

Yuqoridagi aytilgan yondashuv bu yo'nalishda bir nechta yil ilmiy va amaliy faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy tadqiqotchi hamda mutaxassislar tomonidan mualliflik asosida ishlab chiqilgan bo'lib, amaliyotga joriy qilish jarayonida uning yuqori samaraga ega ekanligi kuzatilgan.

Kiberjinoyatlarning oldini olish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga mazkur usuldan foydalangan holda uning bevosita o'zlashtirilishi yoki analoglarini ishlab chiqqan holda amaliyotga joriy qilinishi tavsiya etiladi.

Saidkamol SODIQOV, Ichki ishlar vazirligining Tezkor-qidiruv departamenti Kibexavfsizlik markazi boshlig'i o'rinsbosari, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

MA'MURIY BINO VA
TURARJOYLAR FOYDALANISHGA
TOPSHIRILDI

Namangan viloyatining Uychi tumanida O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati chegara qo'shinlariga qarashli vzvod jamoasi Vatan himoyachilari kuni arafasida quruvchilardan munosib tuhfa oldi. Bu yerda yangi ma'muriy bino hamda harbiy xizmatchilar uchun bunyod etilgan zamonaviy turarjoy foydalanishga topshirildi.

Tantanalı tadbır davomıda yangı xonadonlarning kalıtları o'z egalrıga topshırıldı. Chegara qo'shinlarıda xızmat burchını o'tayotgan harbiy xızmatchılarning oıla a'zoları yaralıayotgan keng imkonıyatlar, ko'rsatılayotgan e'tıbor uchun minnatdorlık bildirdi.

Shundan so'ng ramziy lenta qirqilib, mehmonlar bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

E'tiborlisi, shu kuni mazkur harbiy qism shaxsiy tarkibi to'rt qavatli 36 xonadondan iborat turarjoy binosidan tashqari, yangi qurilgan ma'muriy bino, kinologiya bo'linmasi, ministadion, omborxona va boshqa qo'shimcha inshootlarni



ham qabul qilib oldi.

Qayd etilganidek, zamonaviy xizmat xonadonlari ofitser hamda serjantlarning yashash sharoitini yaxshilashi barobarida, ministadionning foydalanishga topshirilishi mahalliy yoshlar uchun ayni muddao bo'ldi.

**Qudratilla
NAJMIDDINOV**
("Xalq so'zi").



ASKAR ONALARIGA EHTIROM

Mustaqillik yillarida o'ta murakkab va sharaflı yo'lnı bosib o'tgan mamlakatimiz Qurollı Kuchları sarhadlarimiz daxlsizligı, xalqimizning tinch va farvon hayotini to'g'riqlash, demokratik islohotlarnı muvaffaqiyatli amalga oshırishning ishonchli kafolati bo'lmoqda. Harbiy xızmat har bir yigit uchun shon-sharaf ishiga aylandi.

— Ko'nglimiz tinchligi, xotirjamligimiz harbiylarimiz tufaylidir, — deydi Navoiy viloyati hokimi o'rinbosari Malika Mamadiyorova. — Vatan himoyasi yo'lida o'z yigitlik burchini o'tashi esa nafaqat farzandlarimiz, balki biz onalarning ham ko'nglimizni tog'dek ko'taradi. Zero, har bir ota-ona uchun o'z o'g'lining yigitlik davridagi sinov, bu — Vatan himoyachisi degan sharaflı nomga ega bo'lish. Onalar uchun esa bu katta baxt.

Navoiy shahridagi harbiy qismlardan birida "Yangi O'zbekiston armiyasi — mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir" shiori ostida "Askar onalarini sharaflaymiz" mavzuidagi

ma'naviy-ma'rifiy tadbırda milliy armiyamiz saflarida xızmat qılayotgan askarlarning onalariga ehtirom ko'rsatildi. Ona Vatanimizni, bugungi tinch va osoyishta hayotimizni asrab-avaylash, uni har qanday tahdidlardan himoya qilish, er yigitlarning sharaflı burchi haqida so'z yuritildi.

Tadbırda askar onalari hamda ularning Surxondaryo viloyatida muddatli harbiy xızmatni o'tayotgan farzandları bilan videomuloqot uyushtırildi. Harbiy qism rahbariyati mard va jasur farzand voyaga yetkazgan navoiylik onalarga minnatdorlık izhor etdi.

"Xalq so'zi".

KITOB TAFAKKUR VA TUYG'ULARNI CHARXLAYDI

Prezidentimiz raisligida o'tgan yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi tarixiy voqea bo'ldi. Aytish joiz bo'lsa, unda belgilangan vazifalar doirasida yangi O'zbekistonda ma'naviyat sohasida o'ziga xos bosqich — rivojlanish davriga qadam qo'yildi. Davlat rahbarining "Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak", degan so'zlari o'zini shu yurtning farzandi, deb bilgan har bir ziyolining shiori, faoliyat dasturi bo'lishini alohida ta'kidlash lozim.

Nuqtai nazar

Ma'naviyat sohasida o'ziga xos islohotlarni amalga oshirish bugungi kunning muhim talabi ekanini barchamiz tushunib yetmoqdamiz. Ayni hollarni inobatga olib, davlatimiz rahbari kengash yig'ilishida 9 ta yo'nalishda o'z fikrlarini bildirib, muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Xususan, jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha boshlangan ishlar davom ettirilishi borasida aniq vazifalar belgilab berilgani barchamizni mamnun qildi. Bu borada "Yoshlar uchun — ming kitob" loyihasi doirasida joriy yildan boshlab farzandlarimizga rag'bat beradigan eng mashhur ilmiy-ommabop kitoblarni o'zbek tiliga o'girish, maktab va kutubxonalarga bepul tarqatish yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. Buyuk allomalarimizning yoshligi haqida kitoblar yozish, yozganda ham bolalarbop tarzda yozish kerakligi ta'kidlangani ham yosh avlod ma'naviy olamini boyitishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu ishlarni rag'batlantirish, yangi

bosqichga olib chiqish uchun esa bu yil mamlakatimizda Xalqaro bolalar adabiyoti ko'rgazmasi tashkil etiladi.

Darhaqiqat, yoshlarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Shu bois mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, ziyo maskanlari sonini ko'paytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayni yo'nalishda keyingi yillarda Farg'ona viloyatining barcha 19 ta shahar va tuman markazlarida Ma'naviyat va ma'rifat maskanlari barpo etildi. Ziyo maskanlarining faoliyat boshlashi uchun qariyb 3 mlrd. so'm mablag' sarflandi.

Bu borada so'nggi besh yilda milliy adabiyotimiz darg'alari Amiriy, Charxiy, Haziniy, Huvaydo, Uvaysiy, Anvar Obidjon, Muhtarama Ulug'ova kabi 70 nafar ijodkorning devon hamda saylanma asarlari chop

etildi. Shu bilan birga, farg'onalik 21 nafar yosh ijodkorning ilk kitobi nashr qilindi. Buning uchun mahalliy budget hamda homiylik mablag'lari hisobidan 620 mln. so'm mablag' ajratildi.

Bag'dod tumanida 2023-yilda uch qavatli zamonaviy yangi kutubxona qurib bitkazildi. Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi 12 mlrd. so'm mablag' evaziga to'liq rekonstruksiya qilinaypti. Viloyatning barcha shahar-tumamlari bo'yab mahallalarda aholi gavjum joylarga qariyb 33 ming dona adabiyot joylashtirilgan 582 ta elektron kutubxona banneri o'rnatildi.

Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish maqsadida viloyatda 869 ta "Ziyo maskani" kitob do'koni hamda 134 ta "Book cafe" faoliyati yo'lga qo'yildi. Maktab kutubxonalari fondini boyitish uchun 2022-yili 9,5 mlrd. so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2023-yili ushbu ko'rsatkich 12,3 mlrd. so'mga yetdi.

Umuman olganda, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida mutolaa madaniyatini yanada oshirishda kutubxonalarning o'rni beqiyos. Shu sababli, viloyatning har bir shahar-tumanidagi axborot-kutubxona fondlarini boyitish borasida izchil sa'y-harakatlar olib borildi. Natijada 1 mlrd. 476 mln. so'm mablag' evaziga 44 ming 553 nusxa kitob sotib olinishiga erishildi. Ayni jarayonda birgina

Dang'ara tumani axborot-kutubxona markazi fondini yangi adabiyotlar bilan boyitish uchun viloyat hokimi buyurtmasiga ko'ra, 10 ming nusxa adabiyot xarid qilishga 429 mln. so'm mablag' ajratildi.

Bugun kutubxona — do'stona muloqot, ta'lim va tarbiya maskaniga aylangani hech kimga sir emas. Shuning uchun viloyat kutubxonalari doimiy ravishda kitob va mutolaa ni targ'ib qiluvchi turli tadbirlar — ko'rgazmalar, badiiy kechalar, mashhur ijodkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazib borish yaxshi an'anaga aylangan. Ezgu tashabbuslar doirasida mahalliy hokimliklar, axborot-kutubxona markazlari, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda bir qator loyiha va aksiyalar o'tkazib kelinmoqda. Birgina 2022-yil davomida bu borada 100 dan ortiq yangi loyihalar ishlab chiqilgan bo'lib, 2023-yili loyihalar sifat va salmoq jihatdan yanada kengayishiga erishildi.

Viloyatda har bir axborot-kutubxona markazi virtual olamda ham o'z sahifasiga ega bo'lib, "Telegram", "Facebook", "Instagram" ijtimoiy tarmoqlarida kitobxonlar bilan muntazam ravishda onlayn muloqotlar o'tkazib boriladi. "Yoshlar uchun — ming kitob" loyihasi doirasida joriy yildan boshlab kitobxonlikni zamonaviy mezonlar asosida rivojlantirish, xususan, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish borasida alohida chora-tadbirlar rejası ishlab chiqish mo'ljallanmoqda.

Yangi avlodni o'z vaqtda kitobxonlikka qiziqtirish maqsadida ham ezgu maqsadlar ko'zda tutilgan bo'lib, yaqin istiqbolda ushbu yo'nalishda Farg'onada o'ziga xos tajriba maktabi yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Buning uchun esa, eng avvalo, shaharsozlik me'morchiligi an'analari asosida bolalar kutubxonasi barpo etish maqsad qilingan. Hozirda bu boradagi milliy va xalqaro tajribani o'rganish ishlari olib borilayotir.

Muxtasar aytganda, davlatimiz rahbari tomonidan mazkur yig'ilishda bildirilgan va ilgari surilgan fikrlar, ezgu tashabbuslar musharak maqsadlar ijobati yo'lida har birimiz uchun muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Yaqin istiqbolda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarga yangi ruh, g'ayrat-shijoat baxsh etadi. Ziyoilar, har bir oila va insonni ezgu g'oya hamda maqsadlar atrofida jipslashtiradi.

Demak, yaratuvchanlik va bunyodkorlikning ulug' qudrati ma'naviyat sohasidagi yangilanishlar jarayonida ham yaqqol namoyon bo'lishini ta'minlash uchun reja-maqsadlar aniq. O'zaro ahil va hamjihat bo'lsak, xayrli tashabbuslar, orzular albatta, amalga oshadi.

Ma'sudjon SULAYMONOV,
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi Farg'ona viloyati
bo'limi rahbari.

Qulaylik

MAKTABGACHA
TA'LIM TASHKILOTI
ZAMONAVIY QIYOFADA

Yangi yilning dastlabki kunlari Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Eski qal'a mahallasida yashovchi yosh oilalar uchun quvonchli kechmoqda. Bu bir jihatdan hududda bo'sh turgan binoning obdan ta'mirlanib, maktabgacha ta'lim tashkilotiga aylantirilgani bilan bog'liq.

Buni alohida ta'kidlashimiz bejiz emas. Yurtimizdagi barcha ota-onalar singari bu yerda istiqomat qiluvchilar ham farzandlarining zamonaviy shart-sharoitlarda ta'lim-tarbiya olishlarini istashadi.

Shu ma'noda, viloyatning eng chekka go'shalaridan sanalgan bu manzilda 46-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ko'ram binoda ish boshlagani ayni muddao bo'ldi. 180 o'rinni mazkur muassasada bolajonlarning miriqib dam olishi, mashg'ulotlar o'tkazishi, ovqatlanishi, dunyoqarashini kengaytirishi uchun barcha qulaylik yaratilgan. Tumanda shu kabi yangi ta'lim muassasalarining ishg'a tushishi ortidan 3 — 7 yoshli o'g'il-qizlarni bog'chalarga qamrab olish qamrovi 83 foizga yetdi.

Umuman, viloyatda maktabgacha ta'lim yo'nalishida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotgani o'z samarasini bermay qolmayapti. Ayni damga kelib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2015 taga yetib, ularga salkam 153 ming nafar bola qamrab olindi. Bu boradagi ko'rsatkich 2022-yildagiga nisbatan 8,2 foizga oshdi.

G'amxo'rlik

“AYOLLAR DAFTARI”DAGI
XOTIN-QIZLAR BEPUL
DAVOLANMOQDA

Buxoro viloyatidagi "Jo'yzar" ixtisoslashtirilgan reabilitatsiya va sog'lomlashtirish ilmiy-tadqiqot markazida "ayollar daftari" da turuvchilarning dastlabki guruhi qabul qilindi.



Xususan, G'ijduvon, Jondor, Buxoro tumanlari va Buxoro shahrida yashovchi 30 nafar ayol tibbiy tekshiruvlar, shuningdek, tor doiradagi mutaxassislar ko'rigidan o'tib, fizioterapevtik va reabilitatsiya muolajalar olishni boshladi.

— Bahavo go'shada joylashgan ushbu maskan yurak-qon tomir, harakat-tayanch tizimi, nevrologik va oshqozon-ichak kasalliklarini davolashga ixtisoslashtirilgan, — deydi viloyat Oila va xotin-qizlar boshqarmasi matbuot xizmati rahbari Mehriniso Husainova. — Shu bois "ayollar daftari" ga kiritilgan, davolanishga muhtoj yoki qaramog'ida ngironligi bor farzandi bo'lgan 90 nafar opa-singlimizni aynan shu yerda sog'lomlashtirish chora-tadbirlari belgilandi. Shu maqsadda Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasidan mablag' ajratildi.

Ayni chog'da, boshqarma tomonidan bu yerda muolaja olayotganlar uchun turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda. Chunonchi, uyda o'tirib daromad topish mumkin bo'lgan kasb-hunarlar haqida ma'lumot berilib, shunday yumushlar bilan band ayollar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar ko'rgazmasi, mahorat saboqlari uyushtirildi, psixologik trening o'tkazildi.

Ushbu xayrli ishlar davlatimiz rahbarining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida amalga oshirilmoqda.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

QALB QO'RI, MEHR-MUHABBAT MAHSULI

Tosh va yog'ochga ishlov berish kishidan katta mahorat hamda matonatni talab etadi. Shu bois qo'l mehnati bilan tayyorlanadigan mahsulotlarning hamon qadri baland. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bu hunar sharofatidan mohir duradgorlar qo'lida yog'ochga "jon" kirishi rost.

Oramizdagi odamlar

Asli Karmananing Xazorasidan bo'lgan Ma'mur Jabborov shunday hamyurtlarimizdan biri bo'lib, bugun Navoiy shahrining Zarafshon mahallasida istiqomat qiladi.

Ikki yil burun nafaqaga chiqqan Ma'mur aka bolalikdan qon-qoniga singib ketgan kasbidan ko'ngil uzolmaydi. Nabiralarga ushbu hunar sir-asrorini o'rgatish bahonasida mahallasining u yoki bu hududlariga zeb beradi. Ya'ni ko'p qavatli uylar atrofidagi bezaklar,

bolalar o'yin maydonchalaridagi yog'och ishlanmalar, maishiy chiqindilarni to'plash uchun idishlar, qushlar inlari, katta-kichik bejirim gultuvaklar, ikki qavatli naqshinkor so'ri shular jumlasidan.

Usta mazkur buyumlar uchun yog'ochni sotib olmagan. Avvaliga sayr bahona shahar aylanib, daraxtlarning qurigan va qari shoxlarini kesib olgan bo'lsa, keyinchalik mahalladoshlari Ma'mur aka yaratayotgan go'zallikni

ko'rib, qurilishdan ortgan yog'och va taxtalarni unga keltirib bera boshlashdi.

Matematik aniq-hisob, geometrik muvozanat va botanik bilim tufayli bu yog'ochlardan deraza romlaridan tortib, lavh, qalamdon, quticha, lagan va boshqa naqshinkor esdalik buyumlari yasab, ularning o'zlariga qaytarildi. Shu taxlit ustani mijozlar bilan bog'lovchi zanjir yaratildi.

— Biror buyum tayyor holga kelgunicha yog'och bir necha murakkab ishlov bosqichlaridan o'tadi, — deydi M. Jabborov. — Yog'och o'yamakorligi san'atida qayrag'och, archa, yong'oq, tut, o'rik, chinor, tol, terak daraxtlari yog'ochidan ko'proq foydalaniladi. Chunki ularning tarkibida yelim ko'p — tezda chirimaydi, yog'ochi ham ishlovbop. Ayniqsa, yong'oq

yog'ochi suvga, turli ob-havo sharoitiga chidamliligi sabab uzoq yillar xizmat qiladi. Odatda, tajribali ustalar ishlov berish uchun quyoshli joyda o'sgan va kambutoqli daraxtni tanlashadi. Butog'i katta yog'ochlardan tayyorlangan buyumlar esa yillar o'tib yorilishi mumkin.

Mahallada bo'lgan kishi usta yaratgan go'zallikdan hayratga tushar ekan, beixtiyor uning daromadi bilan ham qiziqishi tabiiy. Lekin asosiysi, hunarni san'at darajasiga ko'targan ustaning niyati mahalladagi boshqa xonadon sohiblariga ibrat bo'lib, kishilar qalbiga ezgulik naqshini o'yayotganligini unutmastlik lozim.

Temur ESHBOYEV
("Xalq so'zi").



Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Nabvatchi muharrir A. Soyibnazarov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.15 Topshirildi — 00.30

1 2 3 4 5 6